

**BOSHLANG'ICH SINF "ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI" DARSLIKLARIDAGI  
MATNLAR TAHLILI ASOSIDA O'QUVCHILARDA LISONIY KOMPETENSIYANI  
SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI.**

**Qahramanova Farzona**

*Nizomiy nomidagi TDPU, Boshlang'ich ta'lif fakulteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola boshlang'ich sinflarda ona tili va o'qish savodxonligi darslarini samarali tashkil etish xususida fikr yuritiladi. O'quvchilarning savodxonligini oshirishda to'g'ri o'qishni, so'z boyligini oshirish, keng fikrlashga o'rgatish, nutqini, ongini oshirish kabi bir qator xususiyatlarni o'rGANISHDA ona tili va o'qish savodxonligini to'g'ri tashkil eta bilish, bunda o'quvchilarning intellektual salohiyatiga, ularni qiziqishiga ham e'tibor qaratish lozim.*

**Kalit so'zlar:** *savodxonlik, intellektual salohiyat, yetuk, kadr, iqtisod, lingvistik kompetensiyalar, islohot.*

Hozirgi kunda yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar, ayniqsa, ta'lif sohasidagi tub burilishlar aynan har tomonlama yetuk, barkamol, mustaqil fikrlaydigan yosh avlod ta'lif tarbiyasi uchunligi hech birimizga sir emas. Buning uchun ta'lif sifatini oshirish maqsadida „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va „Davlat ta'lif standarti”ning yo'lga qo'yilishi, boshlang'ich sinflarda ta'lif-tarbiya masalalariga kuchli e'tibor qaratish va bu yo'lda o'qituvchi, pedagoglar oldiga bir qancha talablar qo'yilmoqda. Davlat ta'lif standartida umumiy o'rta ta'lif muassasalarida ona tili o'qitishning asosiy maqsadi quyidagicha belgilangan: “o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri va ravon bayon qiladigan, kitobxonlik madaniyati shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o'zgalar fikrini anglaydigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirishdan iborat”. Mazkur o'quv dasturi ona tili va o'qib tushunishga oid malaka va ko'nikmani rivojlantirishga yo'naltirilgan. Unga ko'ra Ona tili va o'qish savodxonligi faniga shunchaki o'quv predmeti sifatida qaralmaydi. Bunda tili butun borliqni: tabiat, jamiyat, fanlarni, o'zlikni anglash va o'rganish vositasiga aylantiriladi. O'quvchi Ona tili va o'qish savodxonligi fanini o'zlashtirish jarayonida tildan turli ijtimoiy munosabatlarda to'g'ri va o'rinli foydalanishni o'rganadi. Matematika, fizika, kimyo, biologiya, geografiya, iqtisod, jamiyatshunoslik kabi fanlarni o'zlashtirishda til omilini his qiladi. Badiiy matnlar bilan ishlash davomida, o'zidagi ijodkorlik qobiliyatini yuzaga chiqaradi, dunyoqarashi kengayadi. Muayyan soha mutaxassisiga aylanganida, maktabda olgan bilim, ko'nikma va malakalaridan foydalanib o'zbek tilida ish yuritish, nutq so'zlash, turli uslublarda yoza olish, qarashlarini erkin ifodalagan holda fikrini boshqalarga turli shakllarda samarali tarzda yetkazishni, eng muhimi, teran fikrlashni biladi.

Boshlang'ich ta'lif 1-sinf o'quv dasturining tarkibi quyidagicha:

1. Tayyorgarlik davri (tayyorgarlik davrida o'qish hamda yozuv darslari).
2. Alifbe davri (o'qishga va yozishga o'rgatish).
3. Ona tili.

2-4-sinflar uchun Ona tili va o'qish savodxonligi fani dasturi o'quvchining yosh xususiyatlari va shunga muvofiq nutqiy ehtiyojlaridan kelib chiqib tuzilgan.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanidan darsliklar yaratishda boshqa fanlar bilan aloqadorlikni ta'minlashga, fanning barcha ta'lim muassasalarida o'qitiladigan yondosh fanlar, o'quv predmetlarining o'rganish va o'rgatish vositasi ekanligini chuqr anglagan holda undan ilmiy va amaliy faoliyatda foydalanishga, ijtimoiy hayotning turli qirralarini aks ettirishga, shuningdek, ta'lim oluvchilarning yosh, gender va etnomadaniy xususiyatlariga, to'rtta lisoniy malakaning baravar shakllantirishga e'tibor qaratilishi lozim. O'quvchini xalqaro baholash – o'qish savodxonligini baholovchi PIRLS hamda PISA dasturlariga tayyorlash maqsadida o'qib tushunish malakalarini shakllantirishga qaratilgan mashq va topshiriqlar darslik mazmuniga singdiriladi.O'quv dasturi ta'lim muassasasining metod birlashmasida o'rganilib, o'quvchining o'quv imkoniyatlarini e'tiborga olgan holda belgilangan soatlar doirasida 15 foizgacha o'zgartirilishi mumkin. Dunyo ta'lim tizimida tan olingan va juda ko'plab mamlakatlarda joriy etilgan xalqaro baholash dasturlari quyidagilar : The Programme for International Student Assessment ( PISA ) - 15 yoshli o'quvchilarning o'qish , matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholash . 1997 - yilda asos solingen , dastur har 3 yilda o'ziga a'zo davlatlarda sinov olib boradi . 2000 - yilda ilk marotaba tadqiqot o'tkazilgan . Undagi test jahon davlatlaridagi maktab o'quvchilarining bilimi va ularni amaliyotda qo'llay olish mahoratini baholaydi ; Progress in International Reading and Literacy Study ( PIRLS ) boshlang'ich 4 - sınıf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasini baholash . Dastur 2001 - yilda tuzilgan . Har 5 yilda a'zo davlatlarda tadqiqot olib boradi .

O'quv dasturida ona tili va adabiyot fanlari chuqr o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumta'llim muassasalari uchun alohida mavzular berilmay, mavjud nutqiy mavzularining o'qituvchining ijodiy va kreativ yondashuvi asosida yo'nalishga mos ravishda chuqurlashtirib o'qitishiga imkoniyat berildi.Respublika ta'lim markazi huzuridagi "Filologiya fanlari (ona tili, adabiyot, o'zbek tili)" yo'nalishidagi Ilmiy-metodik kengashning 2020-yil 13-noyabrdagi navbatdan tashqari yig'ilishida ko'rib chiqildi va maqullandi. Ona tili fanini o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchi shaxsini fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki hamda yozma shaklda savodli bayon qila olishga qaratilgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish; o'quvchilarda grammatikaga oid bilimlarini misol uchun fotonika, leksikalogiya, so'zning tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari, stilistikaga oid tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish ham ona tilining keng imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda o'qigan, ko'rgan, eshitganlarini nutqiy

to'g'ri va ravon bayon eta olish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan lingvistik kompetensiyalarni shakllantirishdan iborat.

Har bir o'quvchi maktabga qadam qo'yari ekan bilamizki, savodxonlik davridayoq «O'qish» va «Yozish» darslari o'tiladi. Biz har bir yosh avlodga eng avvalo, o'z o'rgatamiz. Boshlang'ich ta'limning 4 yilida ham «Ona tili» va «O'qish» darslari o'rgatiladi. Lekin bizning ta'lim tizimimizda ham kamchiliklar bor. Masalan, bizning maktablarimizdagi har bir sinfda 25 tadan ortiq hattoki, 40 tagacha o'quvchilar taxsil olishadi. Darsning davomiyligi esa bor yog'i 45 daqiqani tashkil qiladi. Bu 45 daqiqaning ham 20 yoki 25 daqiqasi tashkiliy qism, o'tkan mavzu, uyga vazifani so'rash va uyga vazifani berish bilan ötadi. Qolgan vaqtida esa öqituvchi yangi mavzuni tushuntirishi 2 yoki 3 ta mashq bajarishi va mavzuni mustahkamlash uchun didaktik öyin qöllashi kerak. Endi «O'qish» darslarini olsak, katta-katta matnlar. To'g'ri bu matnlar 2 yoki 3 darsga mo'ljallangan bo'ladi. Lekin she'r, ertak yoki hikoyani o'qigandan keyin, o'quvchilarga tushuntirish, ular bilan muxokama qilishimiz kerak. Bu ishlarni qilmas ekanmiz ularni o'qiganimizdan nima foyda? Asosiy maqsadimiz ham o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish, dunyoqarashini shakllantirish emasmi? Bundan tashqari «Ona tili» kitobidagi berilgan mashqlarning matnlarida «O'qish» kitobi va «Odobnama» kitobidagi mashqlar takror va takror keladi. Bu o'quvchilarning zerikishiga olib keladi. Bu muammolarga yechim topmos ekanmiz, ta'lim sifatini oshira olmaymiz. Yuqorida muammolardan biri sinfda 40ta va unda ortiq o'quvchilar o'qishini olsak. Bu muammoni hal qilish uchun juda ko'p kadrlar, ko'p sinf xonalari kerak bo'ladi. Ya'ni har bir sinfdagi o'quvchilar soni 15 va 20 tadan oshirmsaslik kerak bo'ladi. Kadrlar muammo bo'lmasligi mumkin chunki, yildan yilga OTM larga kirish kvotalari ko'paymoqda, lekin sinf xonalarichi bu uchun maktablarni qayta qurishimiz kerakmi? Shu kabi muammolarni hal qilish «Ona tili va O'qish savodxonligi» fanini joriy etish to'g'risidagi takliflar kiritildi. "Yangi fan nima ham qilib bera olardi?" deyishingiz mumkin Yangi fan degani yangi darslik, yangicha uslub, yangi metodlar demakdir. Bu fan asosida yaratilgan darslikda she'r, ertak, hikoyalar o'qish darslari uchun bo'lsa, shu matnlar ustida mashq bajarilishi ona tili darsi uchun mo'ljallangan bo'ladi. Ikkita fan ya'ni "Ona tili" va "O'qish" fanlariga o'rniga bitta fan joriy qilinsa ham dars soatlari qisqarmaydi. Bu esa yuqorida ta'kidlab o'tgan muammoni hal qila oladi deb o'layman. Bu sharoitda o'qituvchi har bir o'quvchi bilan individual shug'ullanadi va albatta, o'qish samaradorligini oshiradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, yangi O'zbekistonni qurishimiz uchun avvalo ta'lim tizimimizni yangilashimiz, yangi g'oyalar kiritishimiz, yangi isloxoatlar o'tkazishimiz kerak. Zero, hozirgi shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonda bunday isloxoatlar, o'zgarishlar qilmas ekanmiz hech qanday yutuqlarga erisha olmaymiz.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. A'zam Xoliqov „Pedagogik mahorat” „Tafakkur-Bo'stoni” Toshkent-2011
2. Siddiqova Sh. „Yosh avlod ma'naviy kamolotida badiiy adabiyotning o'rni” „Izlanish samaralari” 2019-y.
3. K.Qosimova va boshqalar. Ona tili o'qitish metodikasi.T. Noshir.2009.
4. Boshlang'ich sinflar uchun yangi tahrirdagi DTS va o'quv dasturi. - T.: Boshlang'ich ta'lim. 2005. 5-soni.
5. [WWW.TDPU.UZ](http://WWW.TDPU.UZ)